Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3-daraja (boshlang'ich): Ushbu daraja uchun ish staji talab etilmaydi. Biroq, nomzod kamida 3 oy davomida orkestr rahbarligi yoki dirijyorlik yo'nalishida amaliy mashg'ulotlar olib borgan bo'lishi shart; Bu davr mobaynida u repetitsiya jarayonlarida yordamchi sifatida ishtirok etish, nota materiallari bilan ishlash, orkestr ijrochilarini uyg'unlikka tayyorlash va rahbarga amaliy yordam ko'rsatish tajribasini to'plagan bo'lishi lozim; 4-daraja (o'rta): Ushbu darajaga ega bo'lish uchun nomzod orkestr rahbari yordamchisi, dirijyor yoki konsertmeyster sifatida kamida 3 yillik ish stajiga ega bo'lishi talab etiladi; Shuningdek, u kamida bir marotaba malaka oshirish kurslarida qatnashgan, repertuar tanlash, repetitsiya jarayonlarini boshqarish va orkestr uyg'unligini ta'minlash bo'yicha amaliyotga ega bo'lishi kerak; Asarlarni janr va uslubiga mos ravishda tahlil qilish, ijrochilarni birlashtirish va sahna chiqishlarini tayyorlashda yuqori malaka namoyon etgan bo'lishi zarur; 5-daraja (yuqori): Ushbu darajaga ega bo'lish uchun nomzod orkestr rahbari yoki dirijyor sifatida kamida 5 yillik samarali ish tajribasiga ega bo'lishi talab etiladi; Shu bilan birga, u ikki yoki undan ortiq bor malaka oshirish kurslarida qatnashgan, yirik ijodiy loyihalarda orkestrni yuksak darajada boshqarish va ijrochilar bilan individual hamkorlik qilish tajribasiga ega bo'lishi lozim; Professional ijro muhitida o'zini namoyon etgan, turli janrdagi asarlarni orkestrga moslashtirish, sahnaviy ijrochilikni yuksak badiiy darajada tashkil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi shart;
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga qabul qilinishi uchun nomzod 18 yoshga to'lgan, jinsiga qarab (ayol/erkak) kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniga ega bo'lishi lozim; Ish boshlashdan avval dastlabki tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tgan bo'lishi va sog'lig'i kasb xususiyatiga mos kelishi talab etiladi;

	Nomzod jismoniy bardam, ruhiy barqaror, stress holatlariga chidamli va uzoq vaqt davomida tinimsiz ish olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim; Musiq va sahna ijrosi jarayonida katta jamoa bilan hamkorlikda ishlash, turli fuqarolar bilan muloqot qilish, tashqi muhit ta'sirida xulq-atvorini nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi talab qilinadi; Aniq talab etiladigan holatlarda texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha ko'rsatmalarni o'zlashtirganligi, shuningdek favqulodda holatlarda tezkor va xavfsiz qaror qabul qilish salohiyatiga ega bo'lishi zarur. Ishga munosabat va xulq-atvor: - Orkestr rahbari o'z kasbiga sidqidildan yondoshishi, musiqa va ijodiyatga bo'lgan yuqori mehr va mas'uliyat hissiga ega bo'lishi zarur. - Ijodiy jarayonda ijrochilarni rag'batlantirish, ular bilan muloqotda ehtiromli, samimiy va to'g'ri munosabatda bo'lish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi. - Repetitsiya va konsert jarayonlarida intizomli, o'z vaqtida va mas'uliyatli bo'lishi, jamoa oldida namuna ko'rsatishi shart. - Ijodiy muammolarni hal qilishda sabr-toqatli, mulohazali va bosiq yondashuvga ega bo'lishi lozim. - Orkestr a'zolari, texnik xizmatlar va konsert tashkilotchilari bilan samarali hamkorlikni ta'minlay olishi talab etiladi. - Jamoaviy ijrochilik jarayonida ijodiy ruhni ko'tarish, ijrochilarni ruhlantirish va musbat ish muhitini yarata olishi lozim. - Professional etika qoidalariga rioya qilish, sahnaviy madaniyat va tashqi ko'rinishga e'tiborli bo'lishi shart. - Tanqidiy vaziyatlarda vazminlikni saqlash, ziddiyatli holatlarda adolatli va diplomatik yechim topish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	3-daraja uchun boshlang'ich professional ta'lim, 4-daraja uchun o'rta professional ta'lim, 5-daraja uchun professional talab etiladi.
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	3-daraja uchun – Kamida o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim yoki norasmiy (informal) ta'lim doirasida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar malakani baholash markazlari tomonidan mustaqil baholangan bo'lishi talab etiladi. 4-daraja uchun – Kamida o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim yoki norasmiy (informal) ta'lim natijalari asosida shakllangan bilim

	va ko'nikmalar malakani baholash markazlari tomonidan mustaqil baholangan bo'lishi shart. 5-daraja uchun – Kamida o'rta maxsus ta'lim yoki o'rta professional ta'lim tugallangan, shuningdek, kasbiy yo'nalish bo'yicha yuqori malaka va tajribaga ega bo'lishi lozim. Zarur hollarda oliy (bakalavr) ta'lim yoki kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tamomlaganligi ustunlik hisoblanadi. Shuningdek, malakani baholash markazlari tomonidan mustaqil baholash natijalari ham inobatga olinadi.	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	Mavjud emas.	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	Orkestr rahbari, Dirijyor (orkestr) – duxovoy yoki estrada-simfonik yo'nalish, Badiiy rahbar (orkestr va ansambllar uchun), Musiqiy jamoa rahbari (duxovoy/simfonik), Estrada orkestri dirijyori	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Estrada-simfonik orkestri artisti
	3	Duxovoy orkestr artisti
	4	Ansambl va jamoa rahbari
	3	Konsertmeyster
	5	Musiqa o'qituvchisi
Mehnat funksiyalarining tasnifi		
Kodi va nomi	O'qitish natijalari	
	Mehnat vazifalari	
B1.3 Orkestrning ijodiy faoliyatini rejalashtirish va repertuarni shakllantirish	B1.01.3 – Mavsum yoki tadbir yo'nalishiga muvofiq musiqiy asarlar ro'yxatini tuzish	Mehnat harakatlari:
		Mavsumiy yoki maxsus tadbir mavzusi va yo'nalishini tahlil qilish
		Orkestr ijro imkoniyatlarini hisobga olgan holda asarlar turini saralab olish.
		Zamonaviy va an'anaviy musiqa yo'nalishlari bo'yicha repertuar namunalarini izlash va tahlil qilish.
		Mavsum yoki tadbir mavzusiga mos kompozitorlar asarlarini tanlash.
		Asarlarning ijrochilik murakkabligi va orkestr tarkibiga mosligini baholash.
		Ro'yxatga kiritilgan asarlar uchun notaviy materiallar bazasini tayyorlash va tekshirish
		Tanlangan asarlar bo'yicha dirijyor va ijrochilar bilan maslahatlashish.
		Asosiy repertuar ro'yxatini tasdiqlash va ijro uchun tayyorgarlik jarayonlarini yo'lga qo'yish.
		Ko'nikma:
		Musiqa janrlari va uslubiy yo'nalishlarini ajrata olish va tadbir mavzusiga moslab tanlash

		Orkestr ijrochilari imkoniyatlarini baholab, asarlarni moslashtirish
		Zamonaviy va klassik musiqa repertuarlarini tahlil qilish va ulardan maqsadga muvofiq namunalarni tanlash
		Asar murakkabligi darajasini texnik va ifoda jihatidan baholash
		Nota materiallar bilan ishlash, ularni saralash va tayyorlash
		Ijodiy maslahatlashuvlar olib borish va dirijyor hamda ijrochilar bilan hamkorlikda qaror qabul qilish
		Mavsum yoki tadbir konsepsiyasiga mos ijodiy yo'nalish belgilash
		Repertuar ro'yxatini tizimli ravishda shakllantirish va uni ijro jarayoniga yo'naltirish
		Bilim:
		Turli janr va uslubdagi musiqiy asarlarning tarixiy va badiiy xususiyatlari bo'yicha bilim
		Orkestr tarkibi va ijro imkoniyatlariga moslashgan holda asarlarni tanlash prinsiplari bo'yicha bilim
		Zamonaviy va klassik musiqa repertuarlari hamda ularning uslubiy yo'nalishlari haqida bilim
		Notaviy materiallarni tayyorlash, tahrir qilish va ular bilan ishlash qoidalari bo'yicha bilim
		Musiq dramaturgiyasi va kompozitsiya tuzilishi bo'yicha bilim
		Mavsumiy yoki tadbir konsepsiyalariga mos ijodiy rejalashtirish usullari bo'yicha bilim
		Ijrochilarning texnika va ifoda imkoniyatlarini baholash me'yorlari haqida bilim
		Repertuarni shakllantirishda tashkilotchilik, boshqaruv va hamkorlik jarayonlari haqida bilim
B1.02.3 – Tanlangan asarlarning uslubiy, texnik va badiiy talablarini tahlil qilish		Mehnat harakatlari:
		Asarning partiturasini to'liq o'rganish va undagi barcha cholg'u partiyalarini tahlil qilish
		Asarning janr va uslubiy xususiyatlarini o'rganish, kompozitor niyatini anglash
		Texnik jihatdan murakkab bo'lgan o'rinlarni aniqlash va ularni ijrochilar uchun soddalashtirish yo'llarini ishlab chiqish
		Asarning temp, ritm va dinamik belgilari bo'yicha talablarni tahlil qilish
		Badiiy ifoda vositalari – frazirovka, artikulyatsiya va nyuanslarini chuqur o'rganish
		Asarning uslubiga mos ijro texnikasi bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlash
		Ijrochilarning imkoniyatlarini inobatga olgan holda uslubiy tavsiyalar berish

		Asarni sahnada namoyish etish uchun to'liq uslubiy va badiiy tayyorgarlik bo'yicha reja ishlab chiqish
		Ko'nikma:
		Partitura va nota materiallarini chuqur tahlil qilish hamda ularni orkestr ijrosiga moslashtirish
		Asarning uslubiy yo'nalishini aniqlash va ijroda shu yo'nalishni saqlash
		Asarning texnik jihatdan murakkab qismlarini ajratish va ularni mashq qilish bo'yicha tavsiyalar berish
		Badiiy ifoda vositalari – dinamika, frazirovka va nyuanslarni tahlil qilish va ularni ijroda qo'llash
		Orkestr a'zolari imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijro uslubini moslashtirish
		Asarning uslubiy talablarini o'rganib, ularni repetitsiya jarayonida samarali qo'llash
		Texnik va badiiy talablarni uyg'unlashtirgan holda ijro rejasi ishlab chiqish
		Asarni ijrochilar uchun uslubiy va badiiy jihatdan tushunarli tarzda yoritib berish
		Bilim:
		Orkestr repetitsiyasini tashkil etish va mashg'ulot jarayonini boshqarish uslublari bo'yicha bilim
		Asarlarni tahlil qilish va ularni qismlarga bo'lib o'rgatish metodikasi bo'yicha bilim
		Turli cholg'u guruhlarini ijrosini uyg'unlashtirish va ansambl ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha bilim
		Musiqqa nazariyasi va orkestrovka qoidalari haqida bilim
		Ijrochilarning texnika va ifoda mahoratini rivojlantirish bo'yicha mashqlar tizimi haqida bilim
		Ritm, temp, dinamika va uyg'unlikni ta'minlash bo'yicha pedagogik usullar haqida bilim
		Mashg'ulotda yuzaga kelgan ijroi xatolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish uslublari haqida bilim
		Ijrochilarni rag'batlantirish va ijodiy muhit yaratish bo'yicha psixologiya va pedagogika asoslari haqida bilim
B1.03.3 — Tanlangan asarlarning uslubiy, texnik va badiiy talablarini tahlil qilish		Mehnat harakatlari:
		Asar partiturasini to'liq o'rganish va undagi cholg'ular partiyalarini tahlil qilish
		Asarning uslubiy yo'nalishini aniqlash va uning ijroda saqlanishi uchun yo'nalish belgilash
		Texnik jihatdan murakkab bo'lgan bo'limlarni ajratish va ular bo'yicha alohida mashg'ulot rejasi tuzish
		Badiiy ifoda vositalari (dinamika, frazirovka, nyuanslar)ni tahlil qilish va yozma ko'rsatmalar tayyorlash

		Asarning umumiy ritmik, temp va garmonik xususiyatlarini tahlil qilish
		Orkestr a'zolarining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijro usullarini belgilash
		Asarning texnik va badiiy talablariga mos repetitsiya jarayonlarini rejalashtirish
		Ijrochilarga asarning uslubiy va badiiy xususiyatlarini tushuntirish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar berish
		Ko'nikma:
		Asar partiturasini o'qish va undagi cholg'ular partiyalarini aniq tahlil qilish
		Asarning uslubiy yo'nalishini to'g'ri anglab, ijroda saqlash
		Texnik jihatdan murakkab bo'lgan bo'limlarni ajratish va ularga yechim topish
		Badiiy ifoda vositalari (nyuans, dinamika, frazirovka)ni to'g'ri belgilash va qo'llash
		Asarning ritmik va temp xususiyatlarini tahlil qilish hamda orkestr ijrosiga yo'naltirish
		Orkestr a'zolarining individual imkoniyatlarini hisobga olib, ijro usullarini moslashtirish
		Asarning texnik va badiiy talablariga asoslangan holda repetitsiya jarayonlarini tashkil qilish
		Asarning uslubiy va badiiy xususiyatlarini ijrochilarga aniq va ta'sirchan yetkazib berish
		Bilim:
		Musiqqa nazariyasi va garmoniya asoslari
		Orkestrrovka va cholg'ular xususiyatlari
		Asarning uslubiy yo'nalishlari (klassik, romantik, zamonaviy va xalqona uslublar) haqida bilimga ega bo'lish.
		Musiqqa tarixidagi yo'nalishlar va kompozitorlar ijodinibilish va ularni asar talqinida qo'llay olish
		Ijro texnikasi talablari – temp, dinamika, artikulyatsiya va frazirovka qoidalari bo'yicha bilim
		Badiiy ifoda vositalari – asarning emotsional ta'sirini kuchaytiruvchi uslubiy elementlar haqida bilim.
		Repertuar tanlash mezonlari – orkestrning darajasi va imkoniyatlariga mos asarlarni aniqlash bilimlari
		Repetitsiya va ijro jarayonida uslubiy, texnik va badiiy tahlilni amaliy qo'llash bilimlari
		Mehnat harakatlari:
		Mavsumiy yo'nalish va orkestrning ijodiy maqsadlarini tahlil qilish orqali repertuarning asosiy konsepsiyasini ishlab chiqish
		Turli janr va uslublardagi asarlarni saralash hamda ularning orkestr imkoniyatlariga mosligini baholash

	B1.03.3 — Orkestr ijodiy faoliyatining yillik (yoki choraklik) repertuar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun tayyorlash	Asarlarni ijro etish uchun zarur bo'lgan cholg'u tarkibi va ijrochilar sonini aniqlash
		Asarlarni murakkablik darajasi va mavzusiga ko'ra bosqichma-bosqich joylashtirilgan repertuar tuzilishini shakllantirish
		Yillik (yoki choraklik) repertuar rejasini orkestr rahbarlari va ijrochilar bilan muhokama qilish
		Mavsum davomida tashkil etiladigan maxsus konsertlar, festivallar va tadbirlar uchun qo'shimcha asarlar tanlash
		Repertuar rejasini rasmiy hujjat sifatida tayyorlash va tasdiqlash uchun mas'ul idoraga taqdim etish
		Tasdiqlangan reja asosida orkestr mashg'ulotlari va ijro faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish uchun kalendar-grafik ishlab chiqish
		Ko'nikma:
		Orkestrning mavsumiy maqsadlari va yo'nalishlarini tahlil qilish va ularga mos repertuar shakllantirish
		Turli janr va uslubdagi musiqiy asarlarni saralash hamda orkestr imkoniyatiga ko'ra to'g'ri tanlash
		Yillik va choraklik repertuar rejalarini tizimli ravishda tuzish va yo'lga qo'yish
		Asarlarning ijro darajasi, temбри va texnik talablarini aniqlash
		Orkestr a'zolari, solistlar va ijodiy guruhlar bilan muzokara va muhokama olib borish
		Ryepertuar rejasini rasmiy tarzda tayyorlash va tasdiqlash uchun taqdim etish
		Mashg'ulotlar va ijro jarayonini kalendar-grafik asosida yo'lga qo'yish
		Repertuarga o'zgarishlar kiritish yoki favqulodda holatlarda yangicha yechimlar topish
		Bilim:
		Orkestr menejmenti va rejalashtirish asoslari – ijodiy jarayonni tashkil etish, reja tuzish va uni amalga oshirish qoidalari
		Musiqqa tarixi va janrlari – turli davrlar va uslublardagi asarlarning xususiyatlari va ularning orkestr repertuaridagi o'рни
		Orkestr tuzilishi va imkoniyatlari – musiqqa cholg'ulari tarkibi, ovoz diapazoni va texnik imkoniyatlarini bilish
		Asar tanlash mezonlari – ijrochilar darajasi va tadbir yo'nalishiga mos asarlarni baholash va tanlash prinsiplari
		Tashkiliy hujjatlar yuritish asoslari – repertuar rejasini bo'yicha rasmiy hujjatlar tayyorlash qoidalari

		Konsert faoliyatini rejalashtirish bilimlari – mavsumiy konsertlar taqvimini va ularning orkestr ish rejasi bilan uyg'unligi
		Asarlarning uslubiy va texnik talablari – tanlangan musiqiy asarlarning ijro talablari va ularga tayyorgarlik qoidalari
B2.4 Orkestr bilan mashg'ulotlar o'tkazish va ijrochilik mahoratini oshirish	B2.01.4 Orkestr a'zolari bilan umumiy repetitsiyalarni reja asosida tashkil etish	Malaka oshirish va ijodiy rivojlanish tendensiyalari – zamonaviy musiqa yo'nalishlari va orkestr repertuaridagi yangiliklarni kuzatish bilimlari
		Mehnat harakatlari:
		Repetitsiya jarayoni uchun aniq kun va vaqtlarni belgilab, kalendar rejasini tuzish
		Har bir mashg'ulot mavzusi va maqsadini belgilab, repetitsiya dasturini tayyorlash
		Orkestr a'zolariga repetitsiya uchun zarur notalar va materiallarni tarqatish
		Asarlarni bo'limlar bo'yicha o'rganish uchun mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich tashkil etish
		Orkestr a'zolarining tayyorgarlik darajasini baholab, zarur tavsiyalar berish
		Asarni orkestr bilan to'liq ijro etish bo'yicha umumiy repetitsiyalarni yo'lga qo'yish
		Repetitsiya jarayonida texnik va ifoda nuqsonlarini aniqlab, ularni bartaraf etish
		Repetitsiya natijalarini tahlil qilish va keyingi mashg'ulotlar uchun rejalarni yangilash
		Ko'nikma:
		Repetitsiya jarayonini samarali rejalashtirish va vaqtni to'g'ri taqsimlash
		Orkestr a'zolari o'rtasida ijro uyg'unligini ta'minlash uchun metodik yondashuvni qo'llash
		Notalar bilan ishlash va orkestrning barcha guruhlariga yo'naltirilgan topshiriqlar berish.
		Mashg'ulot davomida texnik xatolarni aniqlash va ularni isloh qilish bo'yicha tavsiya berish.
		Orkestrning turli bo'limlari bilan individual va guruhli ishni uyg'unlashtirish
		Asarlarni bosqichma-bosqich to'liq ijroga tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yish
		Repetitsiya jarayonida orkestr a'zolarining diqqatini saqlash va motivatsiya berish ko'nikmasi
		Mashg'ulot natijalarini tahlil qilish va keyingi repetitsiya rejasini takomillashtirish
		Bilim:
		Orkestrning tuzilishi, guruhlari va har bir guruhning ijro vazifalari haqida bilimga ega bo'lish
		Repetitsiya jarayonini tashkil etish va rejalashtirish metodlari bo'yicha bilimga ega bo'lish

		Musiqi nazariyasi va notanavislik asoslarini yaxshi bilish. Asarlarning uslubiy xususiyatlari va janr talablarini farqlay olish bilimi. Ijro texnikasidagi asosiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf qilish yo'llari haqida bilim Orkestrdagi turli cholg'ularning diapazon, ovoz va vazifalarini bilish. Repetitsiya jarayonida ijodiy va tashkilotchilik kompetensiyalarini muvofiqlashtirish bilimlari Orkestr ijrosini tahlil qilish va ijro sifatini baholash mezonlari haqida bilim.
	B2.02.4 Alohida guruhlar (sozlar guruhi) bilan texnik mashqlar va aniqlashtirish ishlarini olib borish	Mehnat harakatlari: Sozlar guruhini ajratib, repetitsiya jarayonini maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish Har bir soz turi uchun texnik mashqlarni tanlab, ularni izchil ravishda bajarishni yo'lga qo'yish Nota materiallaridagi qiyinliklarni tahlil qilib, ularni alohida mashqlar orqali yengishni ta'minlash Guruh a'zolari bilan temp, ritm va uyg'unlikni alohida mashqlar orqali takomillashtirish. Asar ichidagi tiniqlik va ovoz uyg'unligini ta'minlash uchun guruhdagi har bir ijrochining ijrosini alohida tinglash va to'g'rilash Mashq jarayonida uslubiy va dinamik nyuanslarni aniqlashtirib berish. Guruh ijrosini orkestrning umumiy ijrosi bilan uyg'unlashtirish uchun texnik yechimlarni qo'llash Mashq natijalarini baholash va keyingi bosqichda umumiy repetitsiyada qo'llash uchun tayyorlash Ko'nikma: Sozlar guruhi bo'yicha individual va guruh mashqlarini metodik reja asosida tashkil qilish Texnik mashqlarni tanlash va ularni guruhning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish Notalardagi murakkab passajlar yoki qiyin texnik qismlarni guruh bo'yicha tahlil qilish va soddalashtirilgan mashqlar orqali o'rgatish Temp, ritm va metronom bilan uyg'un mashqlar o'tkazish orqali ijroni barqarorlashtirish Ovoz uyg'unligini ta'minlash uchun soz guruhi ichidagi individual ovoz balansi va to'g'ri pozitsiyani aniqlash Uslubiy va dinamik ifoda elementlarini guruh bo'yicha uyg'unlashtirish va bir xillikni ta'minlash Texnik mashqlar natijalarini baholash va ularni umumiy orkestr ijrosiga integratsiya qilish

		Guruh mashqlari orqali ijrochilarning texnik mahoratini yuqori darajaga ko'tarish va orkestrning umumiy uyg'unligiga hissa qo'shish Bilim: Orkestr soz guruhlari tarkibi va ularning vazifalari haqidagi bilim Texnik mashqlar metodikasi va mashq dasturlarini tanlash qoidalari bo'yicha bilim. Ritm, temp va metronom asosida ishlash uslublari haqidagi bilim. Sozlar guruhlari bo'yicha ovoz uyg'unligi va balansini ta'minlash yo'llari haqida bilim. Murakkab passajlarni qismlarga bo'lib o'rgatish va bosqichma-bosqich texnik mashqlar metodikasi bo'yicha bilim. Dinamika, artikulyatsiya va uslubiy elementlarni guruh bo'yicha uyg'unlashtirish nazariyasi haqida bilim Ijroni tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni to'g'rilash usullari bo'yicha bilim Orkestr mashg'ulotlari va guruh repetitsiyalarini tashkil qilishdagi pedagogik va boshqaruv ko'nikmalari haqida bilim
	B2.03.4 Asarni sahnabop darajada ijro etish uchun orkestrni badiiy va hissiy jihatdan tayyorlash	Mehnat harakatlari: 1. Asarning mazmun va uslubini chuqur tahlil qilib, ijrochilarga obrazli talqinni tushuntirish 2. Orkestr a'zolarida asar ruhiga mos hissiy holatni uyg'otish uchun badiiy mashg'ulotlar o'tkazish 3. Asarning dinamik va ifoda elementlarini to'g'ri qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berish 4. Har bir soz guruhi bilan alohida ishlab, asarning umumiy ifoda uyg'unligini ta'minlash 5. Sahnada ijroni hissiy kuchaytirish uchun orkestrni maxsus psixologik tayyorgarlik mashqlari bilan ta'minlash 6. Asarni sahnabop ko'rinishda ijro etish uchun harakat va mimikani orkestr faoliyatiga uyg'unlashtirish 7. Repetitsiyalar jarayonida asarning ichki dramaturgiyasini yoritish uchun bosqichma-bosqich ijro uslubini takomillashtirish 8. Sahnaga chiqish oldidan orkestrda ijodiy ruh va umumiy jamoaviy hissiy tayyorgarlik muhitini yaratish. Ko'nikma: Asarning mazmun va uslubini chuqur anglab, ijrochilarga badiiy va hissiy yo'nalish berish

		Orkestr a'zolarini ijro jarayonida emotsional holatga tayyorlash va ruhiy ko'tarinkilikni saqlash
		Ijroda ifoda, dinamika va tempni uyg'unlashtirishni boshqarish
		Sahnabop ijro uchun orkestrni mimika va sahnaviy harakatlarga yo'naltirish
		Asarning dramaturgik nuqtalarini anglab, ularni ijrochilarga to'g'ri yetkazish
		Orkestr a'zolarini jamoaviy ijodiy ruhda uyg'unlashtirish va muvofiqlashtirish
		Sahnada ifoda kuchini oshirish uchun orkestrda hissiy qo'zg'alishni boshqarish
		Ijro jarayonida texnik va badiiy omillarni uyg'un qo'llash orqali yuqori saviyada tayyorgarlikni ta'minlash
		Bilim:
		Asarning uslubiy xususiyatlari va janr qoidalari haqida bilimga ega bo'lish (simfonik, estrada yoki xalq orkestri uslublari).
		Musiqadramaturgiyasi va obraz yaratish qonunlarini bilish (kulminatsiya nuqtalari, dinamika o'zgarishlari va ifoda usullari).
		Orkestr ijrosida hissiy ta'sir kuchini oshirish usullari (temp, dinamika va artikulyatsiya orqali ta'sirni yo'naltirish).
		Sahnaviy harakat va emotsional ifoda texnikasi bo'yicha bilim (ijro vaqtida jismoniy harakat va his-tuyg'ular uyg'unligi).
		Ijrochilar bilan psixologik ishlash va motivatsiya usullari (jamoaviy ruhni ko'tarish, sahnaviy hayajonni yengish).
		Orkestr ovozlarning uyg'unligi va tembr balansini ta'minlash qoidalari.
		Talab etiladigan texnik tayyorgarlik darajalari va repetitsiya uslublari bo'yicha bilim.
		Sahnada namoyish etish talablari (ssenariy, sahnaviy qo'llanmalar va tomoshabin psixologiyasiga ta'sir qilish yo'llari)
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Orkestr bilan mashg'ulotlarni belgilangan reja asosida mustaqil tashkil etish va olib borish
		2. Mashg'ulot jarayonida ijrochilarning texnik va badiiy ijro darajasi uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
		3. Ijrochilikdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish
		4. Orkestr a'zolari bilan ishlashda ijodiy intizom va hamkorlik muhitini ta'minlash
B3.5	B3.01.5	Mehnat harakatlari:

Jamoatchilik chiqishlarini tashkil etish va konsert faoliyatini muvofiqlashtirish5.	Chiqish joyi, sana va dastur mazmuniga mos ravishda konsert ishtirokchilarini belgilash va tayyorlash	1. Chiqish o'tkaziladigan joyning imkoniyatlari va texnik talablarini tahlil qilish
		2. Konsert dasturi mavzusi va yo'nalishiga mos ijrochilarni saralash
		3. Ijrochilarning bandligi va tayyorgarlik darajasiga ko'ra ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish
		4. Asarlar taqsimotini belgilash va har bir ishtirokchiga mas'uliyatni yuklash
		5. Repetitsiya jarayonlarini tashkil etish va ishtirokchilarning tayyorgarligini nazorat qilish
		6. Chiqish kuniga qadar ijrochilarning sahnaviy harakatlari va kiyinish talablarini muvofiqlashtirish
		7. Safar yoki chiqish logistikasi (safari jadvali, transport va asboblarni tashish)ni tashkil qilish
		8. Chiqish oldidan ijrochilarning tayyorgarlik holatini yakuniy tekshirish va rejaga muvofiq tayyor turishini ta'minlash
		Ko'nikma:
		Konsert dasturi mazmuni va yo'nalishiga mos ijrochilarni tanlash va saralash
		Ijrochilarning texnik mahorati va sahnaviy tajribasini baholash
		Repetitsiya jarayonlarini rejalashtirish va muvofiqlashtirish
		Asarlar taqsimotini to'g'ri belgilash va ijrochilarga vazifalar yuklash
		Chiqish oldidan ijrochilarni sahnaga tayyorlash (harakat, kiyinish, imidj) bo'yicha yo'l-yo'riq berish ko'nikmasi.
		Logistika ishlarini tashkil etish (asboblarni tashish, safari jadvali va texnik jihozlarni tayyorlash)
		Ijrochilarning tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va zarur hollarda yordam ko'rsatish
		Chiqish kunida jamoani ruhlantirish, birlashtirish va professional tayyorgarlik muhitini yaratish
		Bilim:
		Musika ijrosi va orkestr rahbarligi nazariyasi – ijrochilarni to'g'ri tanlash va sahna uchun tayyorlash uslublari haqida bilim
		Repertuar tanlash va ijrochilar imkoniyatlarini baholash mezonlari bo'yicha bilim
		Konsert tashkiloti va rejalashtirish jarayoni (jadval tuzish, tayyorgarlik bosqichlari) haqida bilim

		Sahna tayyorgarligi va ijrochilarning sahnaviy madaniyati (harakat, imidj va sahnaviy obraz) bo'yicha bilim
		Jamoa bilan ishlash psixologiyasi va ijrochilarni ruhlantirish, motivatsiya berish usullari haqida bilim
		Texnik ta'minot va logistika (asboblarni tayyorlash, transport, chiqish joyini jihozlash) bo'yicha bilim
		Sahna qoidalari va xavfsizlik talablari (yoritgich, ovoz berish va texnik jihozlar bilan ishlash) bo'yicha bilim
		Konsert jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarda tezkor qaror qabul qilish usullari haqida bilim
		Mehnat harakatlari:
B3.02.5 Tadbirni o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish (joy, asbob-uskunalar, saundchek, tayyorgarlik)		Tadbir o'tkaziladigan joyni ko'zdan kechirish va undagi texnik imkoniyatlarni baholash
		Asbob-uskunalarining to'liqligi va ishlash holatini tekshirish
		Namoyish etish jarayoni uchun ovoz jihozlari o'rnatish va sinovdan o'tkazishni tashkil etish
		Yoritgichlar va sahna jihozlari to'g'ri o'rnatish va ularning ishlashini nazorat qilish
		Ijrochilarning sahnadagi joylashuvi va chiqish tartibini belgilash
		Konsert boshlanishidan oldin barcha texnik xizmatlar bilan muvofiqlashgan holda tayyorgarlik holatini tasdiqlash
		Tadbir jarayonida texnik yordam ko'rsatish uchun mas'ul shaxslarni joy-joyiga taqsimlash
		Tadbir yakunida asbob-uskunalar yig'ish, hisobga olish va saqlash bo'yicha ishlarga rahbarlik qilish
		Ko'nikma:
		Tadbir joyini texnik jihatdan baholash va unga mos ravishda rejalashtirish
		Asbob-uskunalar tekshirish va ularning holatini aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikma
		Namoyish etish jarayonini tashkil etish va ovoz sifatini to'g'rilash
		Sahna yoritgichlari va texnik jihozlarni to'g'ri joylashtirish
		Ijrochilarni sahnada joylashtirish va chiqish tartibini muvofiqlashtirish
		Barcha texnik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish
		Tadbir paytida yuzaga kelgan texnik muammolarni tezkor hal etish
		Tadbir yakunlangach, asbob-uskunalar yig'ish, saqlash va hisobga olish

		Bilim:
		Tadbir tashkiloti asoslari – konsertlar va jamoatchilik chiqishlarini rejalashtirish qoidalari, bosqichlari va tartibini bilish
		Sahna va texnik jihozlar tuzilishi – sahna uskunolari, yoritish tizimlari va ovoz jihozlarining ishlash prinsiplarini bilish
		Ovoz balansini to'g'ri o'rnatish va mikrofon, kolonka hamda akustik tizimlardan samarali foydalanish bo'yicha bilim
		Asbob-uskunalar xavfsizligi va texnika talablari – elektr jihozlari va sahna qurilmalari bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari.
		Ijrochilarni sahnaga joylashtirish talablari – sahnada ijrochilarning to'g'ri joylashishi va chiqish tartibi bo'yicha bilim.
		Tashkiliy-huquqiy bilimlar – ommaviy tadbirlarni o'tkazishdagi rasmiy ruxsatlar va me'yoriy talablarni bilish
		Tezkor holatlarni boshqarish bilimlari – texnik nosozlik yoki favqulodda vaziyatlarda zarur chora ko'rish bo'yicha bilim
		Tadbir tayyorgarligi va yakunlovchi ishlar – konsertdan oldingi va keyingi texnik tayyorgarlik jarayonlari bo'yicha bilim
	B3.03.5 Konsert faoliyatining umumiy rejasiga muvofiq ijodiy, texnik va tashkiliy jarayonlarni samarali boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Konsert faoliyatining umumiy rejasini tahlil qilish va ijodiy hamda tashkiliy vazifalarni belgilash
		2. Ijrochilar, texnika xodimlari va tashkiliy guruhlar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash.
		3. Repetitsiyalar, saundchek va tayyorgarlik jarayonlari uchun kalendar-jadval tuzish
		4. Texnik vositalar (asbob-uskunalar, yoritish va ovoz tizimlari) holatini nazorat qilish va ularni tayyor holatga keltirish
		5. Ijodiy jarayonda asarlar uslubiy talablariga rioya etilishini ta'minlash va ijrochilarga metodik yo'l-yo'riq ko'rsatish
		6. Konsert davomida texnik va ijodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish hamda uzluksizlikni ta'minlash
		7. Favqulodda yoki rejadan tashqari vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish va muammolarni hal etish
		8. Tadbir yakunlanganidan so'ng ijodiy va texnik jarayonlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va takliflar tayyorlash
		Ko'nikma:

		Konsert dasturini ijodiy va texnik jihatdan muvofiqlashtirish bo'yicha rejalashtirish Ijrochilar, texnika va tashkiliy xodimlar faoliyatini uyg'un ravishda muvofiqlashtirish mahoratlari Repetitsiya va tayyorgarlik jarayonlari uchun samarali kalendar-jadval tuzish Asbob-uskunalar va texnik vositalarning to'liq tayyorligini tekshirish va nazorat qilish Konsert jarayonida ijodiy va texnik jarayonlarni sinxron holda boshqarish Favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va muammolarni hal etish Konsertdan so'ng ijodiy va texnik jarayonlarni tahlil qilish va samaradorlikni baholash Ijrochilar va xizmat ko'rsatuvchi guruhlar bilan samarali muloqot va yetakchilik Bilim: Konsert faoliyatini rejalashtirish asoslari – konsert dasturini tuzish, tayyorgarlik jarayonlari va ijodiy yo'nalishni belgilash qoidalari Ijodiy jarayonlarni boshqarish uslublari – orkestr, ansambl va ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish usullari Texnik jihozlar va asbob-uskunalarini boshqarish – saundchek, yoritish va sahna qurilmalarini tayyorlash talablari. Tashkiliy jarayonlarni muvofiqlashtirish – tadbirlarni tashkil etishda mas'ullar, xizmat ko'rsatuvchi guruhlar va ijrochilar faoliyatini uyg'unlashtirish bo'yicha bilimlar Repetitsiya jarayonlarini boshqarish va samarali kalendar-jadval tuzish qoidalari Favqulodda vaziyatlarda tezkor boshqaruv prinsiplari – konsert paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik va tashkiliy muammolarni hal qilish bilimlari Ijrochilar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan samarali muloqot qoidalari – yetakchilik va kommunikatsiya bilimlari Konsert faoliyatini tahlil qilish va baholash – ijodiy va texnik jarayonlar samaradorligini baholash usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Shaxsiy tayyorgarlik uchun javobgarlik 2. Ijro jarayonida mustaqillik 3. Asar interpretatsiyasi uchun shaxsiy javobgarlik 4. Tinglovchi/tomoshabinga ta'sir o'tkazishda mas'uliyatni his etish 5. Guruhda mustaqil ishtirok etish 6. Fikr bildirish va ijodiy taklif berish mustaqilligi 7. Muammoli ijro holatlarini mustaqil hal etish

		8. Jamoa ichidagi umumiy ijro sifati uchun javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab		Musiqa asbobini to'g'ri va samarali ishlatish ko'nikmasi – Asbobning tuzilishi, ovoz chiqarish mexanizmi va undagi texnik imkoniyatlarni yaxshi bilish. Audio va video texnikadan foydalanishni bilish – Repetitsiya, ijro va yozuv jarayonlarida mikrofonlar, naushniklar, kolonkalar va audioapparatura bilan ishlash. Musiqa dasturlari va nota redaktorlarini bilish (zarur bo'lganda) – Finale, Sibelius, MuseScore kabi notalar bilan ishlash dasturlarini o'rta darajada bilish. Repetitsiya va ijro jarayoni uchun zarur jihozlar bilan tanish bo'lish – Pyupitr, nota o'rindig'i, oyoqqa mos klavish pedali, ovozni muvozanatlash qurilmalari va boshqa yordamchi vositalar. Asar texnik murakkabliklarini hal etish uchun zarur mashqlar to'plamiga ega bo'lish – Passajlar, gami, arpedjio va dinamik diapazonni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni texnik jihatdan to'g'ri va tizimli bajarish. Konsert yoki mashg'ulot uchun asbobni tayyorlash va sozlash ko'nikmasi – Asbobni ijroga tayyor holga keltirish, sozlash, ovozni tekshirish, holatini nazorat qilish. Ovoz chiqarish texnikasini puxta bilish (vokal uchun) – Nafasni to'g'ri taqsimlash, rezonans, artikulyatsiya, diksiya, registrlar o'tishlari kabi vokal texnika elementlarini qo'llash. Jismoniy va psixofiziologik barqarorlikni saqlash texnikasi – Uzoq ijro paytida to'g'ri o'tirish, qo'l-badanni to'g'ri joylashtirish, stressni boshqarish.

Kasbning nomi	Bolalar musiqa va san'at maktablarida (fortepiano, torli cholg'u, puflama va urg'uli cholg'u, xalq cholg'u, an'anaviy cholg'u, estrada cholg'u) asboblari sinfi o'qituvchisi
Mashg'ulot nomining kodi	34350
TMR bo'yicha malaka darajasi	4-5
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	4-daraja (o'rta): Ushbu darajaga ega bo'lish uchun nomzod o'rta maxsus ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'limga ega bo'lishi talab etiladi; Kamida 2 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi yoki amaliyot davomida bolalar musiqa va san'at maktablarida sinf mashg'ulotlarini tashkil etishda ishtirok etgan bo'lishi lozim; Asosiy musiqa nazariyasi, notani o'qish, asbobda ijro etish texnikasi hamda o'quvchilarga individual yondashuv usullarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur; O'quvchilar bilan ishlashda pedagogik psixologiya, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot o'tish metodlarini biladi; Asarlarni oddiy texnik darajada ijro ettirish va musiqa savodini o'rgatish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. 5-daraja (yuqori): Ushbu daraja uchun nomzod o'rta maxsus yoki oliy ta'limga ega bo'lishi shart; Kamida 3 yillik samarali ish tajribasi yoki musiqa o'qitish sohasida yuqori pedagogik natijalarga erishgan bo'lishi talab etiladi; Asarlarni badiiy va texnik jihatdan chuqur tahlil qilish, o'quvchilarga yuqori darajada ijro va musiqa savodini o'rgatish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim; Ijrochilik mahoratini rivojlantirish, ansambl va jamoaviy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha ilg'or metodlarni qo'llay olishi shart; Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarni musiqa tanlovlariga tayyorlash tajribasiga ega bo'lishi kerak; Umumiy o'quv rejasiga asoslangan holda o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, individual mashg'ulotlar samaradorligini oshirish bo'yicha malakaga ega bo'lishi talab etiladi.
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga qabul qilinishi uchun nomzod kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi lozim; Nomzod sog'lomlik holati bo'yicha tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tgan va pedagogik hamda ijrochilik faoliyatini bajarishga yaroqli bo'lishi shart;

	Jismoniy bardamlik va hissiy barqarorlik talab etiladi, chunki uzoq mashgʻulotlar va ijrochilik jarayonlarida stressga chidamlilik zarur; Musiqqa asboblari bilan ishlashda, texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalarini bilgan boʻlishi lozim; Bolalar bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan pedagogik faoliyatga oid etik va huquqiy talablarga rioya etishi zarur.	
